

## Andijon viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2026- yil yanvar-mart dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR


### I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026-yil 1-aprel holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 5 024 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 100 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 4 924 tani tashkil qildi.


2026-yilning yanvar-mart oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 7 360,6 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 103,3 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 738,5 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 144,7%), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 5 177,5 mlrd so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 93,4 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 444,7 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 135,3 %) tashkil etdi.

#### Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (%da)



### Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)




## II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026-yil 1-aprel holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 2 971 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 31 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2 940 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2026-yilning yanvar-mart oyilarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 3 147,7 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 13,5 % ga o'sdi.


Kichik biznes subektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 2 762,4 mlrd so'mni tashkil qilib, 2025-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,0 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 87,8 % ni tashkil qildi.

### Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Xonobod (1,7 b.) shaharida va Oltinko'l (3000,0 b.) tumanida kuzatildi.

### Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




### III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2026-yil 1-aprel holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1 283 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 2 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 281 tani tashkil qildi.

2026-yilning yanvar-mart oyilarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 3 401,0 mlrd so'mga yetdi. 2025-yilning mos davriga nisbatan 107,0 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 98,4 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari hissasiga to'g'ri keldi.

#### Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)



### IV. METAMA'LUMOTLAR



Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuvi va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

<b>Chop etishga masul:</b> Xizmatlar va savdo sohasi statistikasi bo'limi	<b>Bo'lim boshlig'i:</b> (vakant) Tel: +998742288000 (6090)	<b>Ijrochi:</b> N. Usmanova Tel: +998742288000 (6041)	<b>Manzil:</b> 170100, Andijon sh., M.Tiklanish ko'chasi, 36-a
---	---	--	---